

**YER OSTI SUVLARIDAN FOYDALANISHNING HUQUQIY TARTIBGA SOLISH ASOSLARI.**

*Alfraganus universiteti 'Tibbiyot' fakulteti 2-kurs talabalari*

*Berdiyeva Shaxnoz Qurboniyoz qizi*

*Sotiboldiyev Ozodbek Latifjon o'g'li*

*Yo'ldosheva Madina Azamat qizi.*

[ozodbeksotiboldiyev@icloud.com](mailto:ozodbeksotiboldiyev@icloud.com)

[shahnozberdiyeva0@gmail.com](mailto:shahnozberdiyeva0@gmail.com)

+998778770616

+998977392343

**Annotatsiya**

*Ushbu maqolada yerosti suvlaridan foydalanishni huquqiy tartibga solish masalalari borasidagi qarashlar, fikr va mulohazalar, shuningdek qonunlar va nazariyalar o'rganilgan. Kundan kunga aholi soni oshib borishi oqibatida suvga bo'lgan talab yuqorilab, yer usti va yer osti suvlaridan foydalanishning huquqiy asoslari yaratilishini hayotiy zaruratga aylantirib qo'ydi. Barcha mintaqalarda yer usti suvlari bir xilda yetarli emas va bu yer osti suvlariga bo'lgan talabni yanada oshib ketishiga sabab bo'ldi. Suv manbalaridan noto'g'ri foydalanish qanday oqibatlarga olib kelishini biz Orol dengizi misolida yaqqol ko'rishimiz mumkin. Bu jarayonlar atrof-muhitga jiddiy ta'sir ko'rsatdi va mintaqa uchun katta yo'qotishlarga olib kelmoqda. Ma'lumotlarning aniqligini oshirish maqsadida turli xil statistikalar va qonun hujjatlaridan keng foydalanildi. Mavzu doirasida xorijiy va milliy olimlarning fikrlaridan, ilmiy ishlari va tadqiqot natijalaridan, gazeta va jurnallardan, xorij mamlakatlari qonun hujjatlaridan maqsadli havolalar berildi. Shuningdek ijodiy yondashish maqola mazmun-mohiyatini yanada teranroq ochib berishga yordam bergan. Yer osti suvlaridan foydalanishni tartibga soluvchi qonun va qonunosti hujjatlarining muhimligi mavzu doirasida yoritiladi.*

**Kalit so'zlar:** yer osti suvi, huquqiy asos, qonunosti hujjati, UNWC, BMT, PQ, drenaj quduq, kollektor.

Dunyo bo'yicha qishloq xo'jaligida bugungi kunda degradasiyaga uchragan maydonlar ortib bormoqda. Shamol eroziyasi, tuproqda ozuqa moddalari miqdorining kamayishi, sho'rlanish va ifloslanish jarayonlari ta'sirida tuproqlarning holati yildan yilga yomonlashib bormoqda. Bunday salbiy jarayonlar ta'sirida dunyoning ko'plab mamlakatlarida qolaversa respublikamizda ham suv tanqisligi muammosi yuzaga kelmoqda. Mamlakatimizda bugungi kunda sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, tuproq unumdorligini oshirish, suv tanqisligi sharoitida mavjud suv

resurslaridan samarali foydalanish, qo'shimcha suv manbalarini shakllantirish bo'yicha keng qamrovli tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son O'zbekiston Respublikasini 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, "Suv resurslaridan samarali foydalanish hisobiga 7 milliard kub metr suvni iqtisod qilish va sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish sohasiga intensive usullarni eng avvalo suv resurslarini tejaydigan zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy qilish" bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish ko'zda tutilgan. Suv tabiatda eng ko'p tarqalgan modda hisoblanadi hamda turli xil ko'rinishlarda va holatlarda uchraydi. Erkin holatdagi suvlar yer yuzasi oqimlarini va havzalarini, yer osti suvlarining asosiy qismini, qattiq holatdagi suvlar esa muzlik, qor qatlamlarini tashkil qiladi. Atmosferada suvlar bug', suyuq va qattiq holatda uchraydi.<sup>1</sup> Suvlarning kattagina qismi yer po'stida bog'langan suvlar ko'rinishida, minerallarning tarkibiga kirgan kimyoviy jihatdan bog'langan ko'rinishda va tog' jinsi zarralarining yuzasida molekulyar tortishish kuchlari bilan ushlanib turadigan mayda zarralar ko'rinishida uchraydi. Yer yuzasining deyarli 71% maydoni suv qatlamlari bilan qoplangan. Bu qatlam okean, dengiz, mintaqaviy suv havzalari va muzliklardan tashkil topadi. Bu qatlam yer po'stining yuqori qismida joylashgan yer osti suvlari bilan birgalikda gidrosferani hosil qiladi. Hammamizga ma'lumki yer osti suvlari dunyodagi eng muhim chuchuk suv manbai hisoblanib, bugungi kunda u ikki milliarddan ortiq odamni ichimlik suvi bilan ta'minlaydi va dunyodagi oziq-ovqat ta'minotining katta qismini sug'orish uchun ishlatiladi. Haqiqatan ham dunyoning asosiy mintaqalari shaharlar, qishloq xo'jaligi va ekotizimlar muhim suv manbai sifatida yer osti suvlariga tayanadi. Umumiy milliy nuqtai nazardan qaraganda, yer osti suv resurslari juda ko'p ko'rinadi. Biroq, mahalliy sharoitda yer osti suvlarining mavjudligi juda katta farq qiladi. Bundan tashqari, yer osti suvlarining faqat bir qismi quduqlar yordamida iqtisodiy jihatdan va salbiy oqibatlarisiz qayta tiklanishi mumkin. So'nggi o'n yilliklar davomida global yer osti suvlariga bo'lgan talab ikki baravar oshdi. Bu talablar aholi sonining o'sishi va iqlim o'zgarishi tufayli ortib boraveradi. Yer osti suvlarining haddan ortiq kamayishi katta ekologik muammolarni keltirib chiqarishi, tabiat va atrof-muhitga o'nnglanmas talofat yetkazishi mumkin. Bunday oqibatlar kelib chiqishini oldini olish uchun yer osti suvlaridan oqilona foydalanishni tashkillashtirish, foydalanishning huquqiy asoslarini yaratish va ushbu huquqiy asoslarda suiste'molliklarga mutanosib tarzda javobgarliklar belgilash zarur. Yer osti suvlaridan foydalanish bo'yicha ko'plab izlanishlar olib borilgan. Radjabova Mahliyo Maxmudovna "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish

<sup>1</sup><https://scholar.google.com/>

instituti “Gidrologiya va ekologiya” kafedrasida assistenti ham bu sohada ilmiy ishlarini ko’rib chiqqan holda maqolamda keltirib o’taman.

Yer osti suvlariga talab Amerika va Yevropa qit’alaridan farqli ravishda Afrika, Osiyoning janubi-g’arbiy va markaziy qismlari, Avstraliyada ancha yuqori. Sayyoraning bu qismida joylashgan ko’pchilik davlatlar hududining asosiy qismini cho’llar tashkil etadi va bu hududlarda yer usti suvlari yetarli darajada emas. Aynan shu va boshqa qo’shimcha sabablar yer osti suvlariga bo’lgan talabning yuqoriligini asoslaydi. Insonlar bir necha ming yillardan beri yer osti suvlaridan foydalanib kelishmoqda. Hatto ibtidoiy jamoa tuzumi vakillari ham iste’mol suvi sifatida buloq suvlaridan foydalanishgan. Keyinchalik insonlar ongi rivojlanishi bilan ular quduqlar qazib boshlashgan va o’zlari uchun doimiy suv zaxirasini yaratishga harakat qilishgan. Ming yillar oldin yer osti suvlaridan foydalanishning yozma huquqiy asoslari yaratilmaganiga qaramasdan, ulardan foydalanishni qabila boshliqlari o’z nazoratiga olishgan. Chunki qabilalar hayoti bevosita buloqlar va quduqlarning suv zaxirasi bilan bo’g’liq bo’lgan.

Bugungi kundagi yer osti suvlaridan foydalanishni tartibga soluvchi zamonaviy xalqaro qonunchilikka XX asrning II yarmida asos solina boshlangan. Asosiy xalqaro hujjatlardan biri Birlashgan Millatlar Tashkilotining „**Suv oqimlari to’g’risida**”gi konvensiyasi (UNWC) bo’lib, u 1997-yilda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan global shartnomadir. Konvensiya 7 bo’lim va 37 ta moddadan iborat. UNWC butun dunyo bo’ylab transchegaraviy daryolar, ko’llar va yer osti suvlarini adolatli va barqaror boshqarishga yordam beradigan global huquqiy mexanizmni tashkil etadi. Konvensiyaning asosiy maqsadi xalqaro huquqning asosiy tamoyillariga amal qilgan holda umumiy suv resurslari bo’yicha davlatlar o’rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash va yuzaga kelishi mumkin bo’lgan nizolarning oldini olishdan iborat<sup>2</sup>. Bundan tashqari Birlashgan Millatlar Tashkilotining 1994-yil 17-iyunda Parij shahrida imzolangan „**Cho’llanishga qarshi kurash to’g’risida**” gi konvensiyasi ham mavjud<sup>3</sup>. Bugungi kunda ushbu konvensiyaga ikki yuzga yaqin davlat a’zo va bu tarkibda O’zbekiston ham o’z o’rniga ega.

Tor doirada qaraydigan bo’lsak, har bir mamlakatning yer osti suvlaridan foydalanishni huquqiy tartibga soluvchi o’z qonunchilik tizimi mavjud. Mustaqillikda erishganimizning dastlabki yillaridayoq bizda ham bu faoliyatni tartibga solish uchun qonunchilik tizimini ishlab chiqish boshlandi va dastlabki natijalarga bir yil o’tib erishildi. 1992-yil 8-aprelda O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining „**Yer osti suvlaridan foydalanishni tartibga solish, ularni ifloslanishdan hamda kamayib ketishdan muhofaza qilishni kuchaytirish chora-tadbirlari**

<sup>2</sup> United Nations Watercourses Convention.

<sup>3</sup> Stefano Burchi, Kerstin Mechlem; „Groundwater in international law Compilation of treaties and other legal instruments” 2005; chapter 9/10.

to'g'risida"gi 179-sonli [qarori](#) qabul qilindi. Bu qaror O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetining "O'zbekiston SSRda suv chiqarish uchun ekspluatatsiya qilinadigan quduqlarni loyihalash va qurishni tartibga solish bo'yicha choralar to'g'risida" 1978-yil 21-avgustda qabul qilingan 480-son qarori o'z kuchini yo'qotishiga asos bo'ldi. 179-sonli qaror ham tegishli sohadagi munosabatlarni yetarlicha tartibga sola olmagan sababli 2022-yil 22-iyulda bekor qilindi. Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasining „Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi 1993-yil 12-iyunda kuchga kirgan [qonuni](#) mavjud. Ushbu qonun 119 ta moddadan iborat bo'lib, suv va suvdan foydalanish sohasidagi munosabatlarning asosiy tartibga soluvchisi hisoblanadi. Qonunning asosiy vazifalari aholi va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlari uchun suvlardan oqilona foydalanishni ta'minlash, suvlarni bulg'anish, ifloslanish va kamayib ketishdan saqlash, suvlarning zararli ta'sirining oldini olish hamda ularni bartaraf etish, suv obyektlarining holatini yaxshilashdan, shuningdek suvga doir munosabatlar sohasida korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, fermer, dehqon xo'jaliklari hamda fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan iboratdir<sup>4</sup>. Qonunga 2021-yil 30-noyabrda yana [o'zgartirish va qo'shimchalar](#) kiritildi. Bunda Vazirlar Mahkamasining suv munosabatlarini tartibga solish sohasidagi vakolatlari kengaytirildi, mahalliy davlat hokimiyati organlarining suv munosabatlarini tartibga solish sohasidagi vakolatlari to'ldirildi va suvdan foydalanish, uni muhofaza qilish ustidan davlat nazorati kuchaytirildi. Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasida „Suvdan foydalanish va suv iste'moli tartibi to'g'risida" [nizom](#) ham mavjud. Mazkur nizom 2013-yil 1-apreldan boshlab amalga kiritilgan. Yer osti suvlaridan foydalanishning Buxoro viloyati misolida ko'radigan bo'lsak, Viloyatda yer osti bosimli suvlari sug'oriladigan maydonlar tashqarisidan oqib keladigan sizot suvlari hisobidan hosil bo'ladi. Sizot suvlarida bosimni hosil bo'lishiga asosiy sabab sug'oriladigan yerlar hududiga yer ostidan oqib keladigan sizot suvlarini chiqib ketadigan sizot suvlari miqdoridan ancha ko'pligidir. Sug'oriladigan maydonlarning harakterli davrda yer osti sizot suvlari sathining joylashuviga asosan, quyidagicha taqsimlandi<sup>5</sup>.

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasining „Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi qonuni; 1-modda.

<sup>5</sup> <https://scholar.google.com/>

Yillar, oylar	Sug'oriladigan maydon (ga)	Shu jumladan yer osti sizot suvlari sathining joylashuvi bo'yicha							
		0,0-1,5 (m)	%	1,5-2,0 (m)	%	2,0-3,0 (m)	%	3,0 m dan yukori	%
<b>2021 yil</b>									
1.IV	276309	18275	6,6	56883	20,6	164518	59,5	36633	13,3
1.VII	<b>276309</b>	8070	2,9	<b>47534</b>	17,2	<b>156393</b>	56,6	64312	23,3
1.IX	276309	5784	2,1	34634	12,5	169717	61,4	66174	23,9
<b>2022 yil</b>									
1.IV	276309	11665	4,2	55804	20,2	176017	63,7	32823	11,9
1.VII	276309	9352	3,4	41264	14,9	174690	63,2	51003	18,5
1.IX	276309	6847	2,5	<b>28134</b>	10,2	<b>155663</b>	56,3	85665	31,0

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 4-may kuni **“2017—2021-yillarda yer osti suvlari zaxiralaridan oqilona foydalanishni nazorat qilish va hisobga olishni tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida”**gi qarorni imzoladi. 2017-yil 27-iyunda esa Vazirlar Mahkamasining 430-son **“Yer osti suvlaridan foydalanish sohasidagi faoliyatni yanada tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida”**gi qarori e'lon qilindi. Qaror 2017-yil 3-iyul sanasida kuchga kirdi. Uning rasmiy sharhida **2017-yil statistikasiga ko'ra O'zbekistondagi 69 ta shahar, 335 ta posyolka va 2902 ta qishloq aholi punkti aholisining ehtiyojlari yer osti suvlari zaxiralari hisobiga qondirilayotganini ko'rish mumkin<sup>6</sup>. Prezident qarori asosida maxsus dastur ishlab chiqildi.** Dasturni moliyalashtirish uchun davlat budjeti, xalqaro moliyaviy institutlar va mahalliy budjetlar mablag'lari hisobidan **396 milliard so'm** yo'naltirildi. Mazkur qaror va uning asnosida qilingan harakatlar drenaj quduqlar sonini 715 taga, kuzatish drenaj quduqlari sonini 1369 taga, kollektorlar uzunligini 280 kilometrga ko'paytirish hisobiga 132 ta shaharlar va tumanlar markazlarida yer osti suvlari sathi ko'tarilishining oldini olish hisobiga O'zbekistonning ko'plab shahar va qishloqlarida yashash sharoitlarini yaxshilash imkonini berdi.

Istalgan rivojlangan va demokratik davlatlarda birinchi o'rinda qonun ustuvorligi turadi. Bizning konstitutsiyamizda ham yer va yerosti boyliklari, ularni muhofaza qilish davlat himoyasida ekani to'g'risida 68-modda bor. Bundan tashqari, Respublikamizdagi barcha suv resurslariga oid tartiblar O'zbekiston Respublikasining suv va suv resurslaridan foydalanish qonuni bilan tartibga solingan. Qonunda vakolatli organlar, suvdan foydalanuvchi va iste'molchilarning majburiyatlari ham belgilangan.

<sup>6</sup> PQ “2017—2021-yillarda yer osti suvlari zaxiralaridan oqilona foydalanishni nazorat qilish va hisobga olishni tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qaror; 2-xatboshi.

Ushbu qonunning bir qator moddalarida suv iste'molchilari va suvdan foydalanuvchilar majburiyatlaridan biri sifatida suv olish obektlarida suv hisoblagichlar o'rnatilishi belgilangan. Suv olish obekti deyilganda daryo, kanal, yerosti quduqlari, buloqlar kabilar nazarda tutiladi.

So'nggi yillarda yerosti suvlari monitoringi olib borilganda Respublikamizning 21 ta hududida yerosti suvlari o'rtacha sathdan 5 metr va undan ortiq pasaygani aniqlandi. Ko'p yillik quduqlar qurib ham qolgan. Mana shunday holatlar oldini olish, yerosti suvlarini reabilitatsiya qilish maqsadida hisoblagich o'rnatish masalasini ko'tardik. 2022 yil 7 dekabrda prezidentimizning 439-sonli qarori qabul qilindi. Qarorga ko'ra, 21 ta hududda yerosti suvlaridan foydalanish bo'yicha alohida tartib joriy etiladi. 2024 yil 1 yanvardan boshlab, yerosti suvlaridan foydalanishda suv hisoblash vositalari o'rnatish belgilandi.

### **Suv hisoblash vositalari o'rnatish aynan kimlarga majburiy?**

— Kunlik 5 tonnagacha va 25 metr chuqurlikkacha bo'lgan suvlarni oluvchi jismoniy shaxslarga mustasno holati bor. Aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadida shunday qilingan.

Hisoblagichni, avvalo, yuridik shaxslarga o'rnatish majburiy bo'ladi va kunlik 5 tonnadan ko'p va 25 metrdan chuqur yerosti suvlarini oluvchi jismoniy shaxslarga ham majburiy bo'ladi. Yuridik shaxslarga aholini ichimlik suvi bilan ta'minlovchi kommunal tashkilotlari, suv xo'jaligiga kiruvchi tashkilotlar, fermer xo'jaliklari va yirik sanoat ishlab chiqarish zavodlari kabilar kiradi.

### **Hisoblash qanday tartibda va qanday narxlarda bo'ladi?**

— Aytganimdek, jismoniy shaxslar 5 tonnagacha suv olishi mumkin. Shu miqdorda suv olganda suv resurslariga ta'sir qilmaydi. Ilgari nasoslar orqali hisoblanar edi suv sarfi, ammo so'nggi vaqtlarda yerosti suvlari balansi buzilgan. Shuning uchun aniq hisoblarni yuritish uchun suv hisoblash vositalari borasida alohida tadbirlar olib borilyapti hududlarda.

Birinchi navbatda aholimizning huquqiy ongini, suvga bo'lgan munosabatini shakllantirish uchun seminarlar, muloqotlar tashkil qilinyapti<sup>7</sup>.

Narx masalasiga kelsak, O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 445-moddasiga ko'ra, suv olish turlariga ko'ra turlicha tariflar bo'ladi. Ya'ni yerosti va yerusti suvlariga har xil tariflar belgilangan. Maqsadlar ham belgilangan, sug'orish, qadoqlash, sanoat maqsadlari uchun turlicha soliq turlari belgilangan. Ushbu yangilikdan maqolamda foydalangan holda yozishni ma'qul topdim.

Mamlakatimizda yer usti va yer osti suvlaridan samarali foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasining "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida" gi qonuni bu boradagi muhim huquqiy hujjat hisoblanadi. 07.12.2022 sanasida

<sup>7</sup> <https://kun.uz/news/2023/11/23/yer-osti-suvlaridan-hisoblagich-bilan-foydalanish>

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yer osti suv resurslarini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishni tartibga solish bo‘yicha qo‘shimcha choratadbirlar to‘g‘risida” gi PQ-439-sonli qarori qabul qilindi. Mazkur qarorda respublikada yer osti suvlaridan foydalanish va quduq burg‘ilash tizimini yanada takomillashtirish, yer osti suv resurslarini muhofaza qilish bo‘yicha davlat va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, aholi orasida suvdan oqilona foydalanish madaniyatini keng targ‘ib qilish, ularning miqdor jihatdan kamayib ketishi va ifloslanishining oldini olish hamda aholini uzoq muddatli istiqbolda sifatli ichimlik suv bilan ta‘minlash masalalari va zarur choratadbirlar bayon qilingan. Bundan tashqari yer osti suvlaridan foydaanish bo‘yicha yuridik javobgarlik ham mavjud. O‘zbekiston Respublikasining “Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risida” gi qonunchiligining 72-moddasida Suv resurslarini muhofaza qilish qoidalarini buzish deb nomlanadi. Bunda Suvlarni ifloslantirish yoki bulg‘atish, suvto‘plagich inshootlarida suvni muhofaza qilish rejimini buzish, shuningdek suv obyektlariga oqindi suvlarni oqizishga yo‘l qo‘yish shartlari to‘g‘risidagi talablarni buzish — fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining uch baravaridan besh baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — besh baravaridan o‘n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Korxonalar, kommunal va boshqa obyektlarni suvlarning ifloslanishi va bulg‘anishi yoki ularning zararli oqibatlarini oldini oluvchi inshootlar va qurilmalarsiz foydalanishga topshirish, shuningdek suv obyektlarining tabiiy holatini buzuvchi boshqa harakatlar qilish — mansabdor shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o‘n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Suv quduqlarini qazishning belgilangan qoidalarini va texnologiyasini buzish (bundan jismoniy shaxslarning o‘z ehtiyojlari uchun, shu jumladan tomorqa yer uchastkalarini sug‘orish uchun **yer osti** suvlarini yakka tartibda olishga mo‘ljallangan quduqlarni qazish hollari mustasno), ishlatilayotgan va kuzatuv quduqlarini yo‘q qilib yuborish yoki shikastlantirish, suv o‘zi chiqadigan quduqlarni ularni tartibga soladigan qurilmalar bilan jihozlashga, shuningdek ishlatishga yaroqsiz quduqlarni konservatsiyalashga yoki yo‘q qilishga doir choralarni ko‘rmaslik, sifatli **yer osti** suvlari hosil bo‘ladigan tegrada **yer osti** suvlari ifloslanishining yoki sifati yomonlashishining manbai bo‘lib qolishi mumkin bo‘lgan sanoat, qishloq xo‘jaligi inshootlarini va boshqa obyektlarni joylashtirish, — fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravaridan besh baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — besh baravaridan yetti baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Ushbu moddaning birinchi, ikkinchi yoki uchinchi qismlarida nazarda tutilgan huquqbuzarliklar ma‘muriy jazo chorasi qo‘llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo‘lsa, — fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining yetti baravaridan o‘n baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — o‘n besh baravaridan yigirma

baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.<sup>8</sup> Ko‘rib turganimizday agarda ushbu qonunchilik talablarini buzgan shaxs uchun yuridik javobgarliklar belgilanadi.

### Xulosa

O‘rganilgan ma‘lumotlardan kelib chiqib, shuni aytishimiz mumkinki, yer osti suvlaridan foydalanishni huquqiy tartibga solish uchun xalqaro tashkilotlar va har bir mamlakat o‘z qonunchiligini yanada rivojlantirishi va undagi bo‘shliqlarni to‘ldirishi kerak. Maqolani yozish uchun manbalar qidirish davomida xalqaro konvensiyalar va bir nechta davlatlarning tegishli sohadagi huquq tizimlarini o‘rganib chiqdik. Ayniqsa AQSh, Yevropaning ba‘zi kuchli qonunchilikka ega davlatlarining yer osti suvlaridan foydalanishni huquqiy tartibga soluvchi huquqiy tizimlari yer osti suvlariga talab katta bo‘lgan Afrika, Osiyo va Avstraliya qit‘asidagi davlatlarning tegishli qonunchilik tizimlaridan ancha mukammalroq yaratilgan. Mamlakatimizdagi tegishli qonunchilik tizimida ham hali bo‘shliqlar va e‘tibordan chetda qolgan masalalar mavjud. Yer osti suvlari monitoringining amaldagi tizimi suv manbalarining ifloslanishiga, yer osti suvlari zaxiralarining kamayishiga va ba‘zi aholi punktlarida yer osti suvlari sathining ko‘tarilishiga olib keluvchi salbiy omillarni o‘z vaqtida va to‘laqonli baholash imkonini bermayotganini bunga misol qilishimiz mumkin. Ijtimoiy munosabatlar rivojlangani sayin qonunchilik tizimini qayta ishlash va mukammallashtirish zarur. Yuqoridagi sabablarni hisobga olib biz xalqaro huquq normalari va kuchli qonunchilik tizimiga ega davlatlarning qonunchiligini chuqur o‘rgangan holda o‘z qonunchilik tizimimizni yetarli darajada rivojlantirmas ekanmiz bunday ekologik muammolarning oldini olish imkonsiz. Aholini suv bilan ta‘minlash hamda sug‘orish uchun yer osti suvlaridan samarali va oqilona foydalanish uchun bir qator masalalarni hal etishimiz lozim. Hozirgi kunga kelib yurtimizda barcha turdagi suv tejoychi texnologiyalardan foydalanuvchilarni qo‘llab-quvvatlash, bu borada so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan ishlarni izchil davom ettirish maqsadida 2019 yil 25 oktabr kuni Prezidentimizning “Qishloq xo‘jaligida suv tejoychi texnologiyalarni joriy etishni rag‘batlantirish mexanizmlarini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Mazkur qarorda suv xo‘jaligi sohasiga oid salmoqli chora-tadbirlar ko‘rish masalalari belgilab qo‘yilgan. Suv xo‘jaligida zamonaviy bilimlarga tayanib, suvdan oqilona foydalanish, suv tejamkorligi yuqori bo‘lgan innovatsion texnologiyalarni amalda yanada ko‘proq tadbiriq etish, chet el tajribasini chuqurroq o‘rganish zarurati yanada ortadi. Yer osti suvlaridan oqilona foydalanishni nazorat qilish va tartibga solishda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish va jarayonlarni masofadan boshqarish usullarini tatbiq qilish ortda qolmoqda. Buning uchun sohaga oid xalqaro tajribani o‘rganish, mutaxassislar malakasini oshirish va ilg‘or zamonaviy yechimlarni joriy qilish ham alohida o‘rin egallashi zarur.

<sup>8</sup> “Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘ridagi” kodeksi 72-modda



**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. X.I. Valiyev, Sh.O. Muradov, B.M. Xolbayev; „Suv resurslaridan mukammal foydalanish va muhofaza [qilish](#)” T-2010;
2. Latofat Qabulova; „O‘zbekistonning arid mintaqalarining yer osti suvlari va ulardan oqilona foydalanish [masalalari](#)” 2022;
3. Kenesarin N. A., Sultonxo‘jayev A. N.; „Yer osti suvlari va ulardan xalq xo‘jaligida [foydalanish](#)” T-1962;
4. O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi; [lex.uz](#).
5. <https://scholar.google.com/>
6. O‘zbekiston respublikasi Yer kodeksi.
7. O‘zbekiston Respublikasi “Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risida”gi kodeksi